
RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahar "Sharshara" mahalla fuqarolar yig'inidagi ichimlik suvi ta'minotidagi muammolar yuzasidan murojaat tarqaldi. Murojaat Farg'ona shahar hokimligi hamda "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ viloyat va shahar bo'limlari mutaxassislari tomonidan o'rganildi.

2021 yilda "Sharshara" mahallasida 2200 metr, joriy yilda esa yana 2700 metr tarmoq tortildi. Bugun barcha tarmoqlarni markaziy tarmoqqa ulash ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

Mahallada 1004 ta xonadon bo'lib, shu kunga qadar 200 ga yaqin xonadonlar toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Yangi tarmoqning tortilishi bilan yana 500 dan ortiq xonadonlarga ichimlik suvi kirib boradi. Mahallani to'liq ichimlik suvi bilan ta'minlash choralari belgilangan.

O'rganish davomida 200 ta xonadon iste'mol qilingan suv uchun to'lovlarni amalga oshirmasligi ham aniqlandi. Hozirda "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ Farg'ona shahar bo'limi xodimlari tomonidan fuqarolarga hisoblagich o'rnatish bo'yicha ogohlantirish xatlari tarqatilmoqda.

2022-07-14 13:25:08